

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.1.16.01**

**ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**JURAYEVA NODIRAXON FUZULIY QIZI**

**TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELI SIFATINI  
OSHIRISH ISTIQBOLLARI**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Jurayeva Nodiraxon Fuzuliy qizi**

Tijorat banklari kredit portfeli sifatini oshirish istiqbollari..... 3

**Жураева Нодирахон Фузулий кизи**

Перспективы повышения качества кредитного портфеля коммерческих  
банков..... 37

**Jurayeva Nodirakhon Fuzuliy kizi**

Prospects for improving the quality of the credit portfolio of commercial  
banks..... 73

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works ..... 78

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.1.16.01**

**ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**JURAYEVA NODIRAXON FUZULIY QIZI**

**TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELI SIFATINI  
OSHIRISH ISTIQBOLLARI**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida  
B2024.2.PhD/Iqt4074 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (tsue.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Azlarova Aziza Axrarovna**  
iqtisod fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Tursunov Bobur Ortiqmirzayevich**  
iqtisod fanlari doktori, professor

**Ibdullayeva Ma’rifat To‘lqunovna**  
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**«Biznesni rivojlantirish banki» aksiyadorlik tijorat banki**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.1.16.01raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_” soat \_\_\_ dari majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-41-23; 1e-mail: [tsue@tsue.uz](mailto:tsue@tsue.uz))

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dari \_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**S.U. Mexmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f. d., professor

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f. d., professor

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f. d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida tijorat banklari kredit portfeli sifatini oshirish moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, kredit xavfini kamaytirish, bank aktivlarining likvidligi va foydalilagini oshirish, iqtisodiyotning real sektoriga samarali moliyaviy resurslar yo'naltirish hamda bank tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kredit portfelini sifatli shakllantirish banklarning riskni boshqarish strategiyalarini kuchaytirish, qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatini aniq baholash, diversifikatsiya va sektorlararo tahlillardan foydalanishni talab etadi. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) ma'lumotiga ko'ra, "Kredit sifati ko'rsatkichlari, xususan, muammoli kreditlar ulushining umumiyligi kreditlari hajmiga nisbati kabi indikatorlar bank sektoridagi zaif jihatlarni aniqlash va nazarat organlari tomonidan chora-tadbirlar ko'rish uchun muhim ahamiyatga ega"<sup>1</sup>. Bu esa, kredit portfelining sifatini oshirish orqali tijorat banklari nafaqat moliyaviy tavakkalchilikni kamaytiradi, balki makroiqtisodiy barqarorlikka ham faol hissa qo'shadi.

Jahonda bank tizimida muammoli kreditlar ulushini kamaytirish, faol aktivlarning sifatini yaxshilash va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan tadqiqotlar qamrovi kengayib bormoqda. Kredit risklarini baholashda sun'iy intellekt va mashinali o'rghanish algoritmlaridan foydalanish, kredit berish jarayonlarini avtomatlashtirish va sinovdan o'tkazish (stress-testing) modellarini takomillashtirish, ESG (ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv) omillarini inobatga olgan holda kredit siyosati shakllantirish, transaksion ma'lumotlar va muqobil skoring tizimlaridan foydalangan holda qarz oluvchilar profilini aniqlash hamda kreditlar bo'yicha transfer risklarini diversifikatsiyalash strategiyalarini joriy etish kabilar tijorat banklari kredit portfeli sifatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari bo'lib hisoblanadi.

O'zbekistonda tijorat banklari kredit portfeli sifatini oshirish borasida belgilangan ustuvor vazifalar qatoriga muammoli kreditlarni barvaqt aniqlash va kamaytirish, kredit risklarini baholashning zamonaviy tizimlarini joriy etish, qarz oluvchilarning to'lov qibiliyatini chuqur tahlil qilish, iqtisodiy faol sektorlarga yo'naltirilgan diversifikatsiyalangan kredit siyosatini shakllantirish hamda kredit monitoringi va hisobdorlikni kuchaytirish kiradi. O'zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish Strategiyasida "kredit portfeli sifatini yaxshilash va risklarni boshqarish, kreditlash hajmining mo'tadil o'sishiga rioya qilish, muvozanatlari makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro amaliy tajribaga ega menejerlarni jalb qilish, moliyaviy risklarni baholash uchun texnologik yechimlarni joriy etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash" asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan<sup>2</sup>. Bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar sifatida Markaziy bank tomonidan kreditlar

<sup>1</sup> Manba: Credit Market Research // S&P GLOBAL [veb-sayt]. – [Elektron resurs] – Kirish rejimi: <https://www.spglobal.com/ratings/en/research-insights/credit-market-ratingsperformance-research>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/6600404>

sifatini reytinglash standartlarini ishlab chiqish, kredit axborot almashinuvini yaxshilash uchun yagona ma'lumot bazalarini yaratish, shuningdek, bank xodimlari uchun kredit risklarini boshqarish bo'yicha muntazam treninglar tashkil etish kabi islohotlar orqali kredit portfelining barqarorligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan tizimli ishlarning amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 19-noyabrdagi PF-5877-son "Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish bilan pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmonlari, 2023-yil 18-avgustdagi PQ-283-son "Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini isloh qilish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 21-maydagi PQ-4325-son "Davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ishtirok etayotgan tijorat banklarini restrukturizatsiya va isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 16-yanvardagi 30-son "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi qarori (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-dekabrdagi PQ-4071-sonli "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, faoliyati samaradorligini oshirish va kredit siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori) hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoni o'r ganilganlik darjasи.** Tijorat banklari kredit portfeli nazariyasining rivojlanishi A.Smit, D.Rikardo, A.Marshall, U.S.Jevons, K.J.Erou, J.Stigler, J.S.Mill, A.Marshall, F.Nayt, Y.Shumpeter<sup>3</sup> va boshqa olimlarning ishlarida o'z aksini topgan.

Tijorat banklari kredit portfeli sifatini oshirish bilan bog'liq muammolarni rivojlantirishga A.M.Tavasiev, O.I.Lavrushin, M.M.Selezneva, R.A.Shevlev, S.B.Kovalenko, I.Ye.Shveykin, D.A.Trifonov, M.A.Bushueva, B.A.Gadjieva,

<sup>3</sup> Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. Книги 1-3. – М.: Директ-Медиа. 2014. - 442 с.; Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. – М.: Директ-Медиа. 2016. - 234 с.; Маршалл А. Принципы политической экономии / А. Маршалл. – М.: Директ-Медиа, 2012. – 212 с. – URL: <https://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=26824>; Джевонс У.С. Основы науки. Трактат о логике и научном методе. – М.: Либроком. 2014. – 145 с.; Эрроу К. Возможности и пределы рынка как механизма распределения ресурсов. – М.: THESIS: Теория и история экономических и социальных институтов и систем. 1993. Т. 1. Вып. 2. – С. 53–68; Стиглер Дж. Совершенная конкуренция: исторический ракурс. // Вехи экономической мысли: теория фирмы. Т. 2/ Под редакцией В.М. Гальперина. – СПб., 1999. - 215 с.; Миль Джон Стюарт Рассуждения о представительном правлении. – М.: Социум. 2012. - 145 с.; Найт Ф.Х Риск, неопределенность и прибыль. – М.: Дело. 2012. - 134 с.; Шумпетер Йозеф Алоиз Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия. – М.: Эксмо. 2007. - 215 с.

A.Ye.Usanov, A.A.Xashaev, L.S.Abrokova, R.Sh.Zinnatullina<sup>4</sup> singari olimlar salmoqli hissa qo'shganlar.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda tijorat banklari kredit portfeli sifatini oshirish muammolari N.Jumayev, R.Tojiyev, R.Qayumov, I.Toymuxamedov, A.Azlarova, K.Muxamedjanov, K.Kunduzova, Sh.Ibdullayev, G.Baqoyeva, U.Ziyadullayev<sup>5</sup> va boshqa oimlarning tadqiqotlarida ham diqqat markazida bo'lgan.

<sup>4</sup> Тавасиев А.М. Государственные банки развития в мире и в России // Банковское дело. 2017, № 3. – С. 36-42. Лаврушин О.И. Базовые основы теории кредита и его использование в современной экономике // JER. 2017. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bazovye-osnovy-teorii-kredita-i-ego-ispolzovanie-v-sovremennoy-ekonomike>; Лаврушин О.И., Селезнева М.М. Влияние перехода коммерческих банков на модель ожидаемых кредитных убытков для формирования резервов под обесценение активов на их стратегию // Финансовые рынки и банки. 2018. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-perehoda-kommercheskih-bankov-na-model-ozhidaemyh-kreditnyh-ubytkov-dlya-formirovaniya-rezervov-pod-obestsenenie-aktivov-na-ih>; Шевелёв Р.А. Международная практика оптимизации кредитного портфеля банка и ее применение для российского рынка // Инновации и инвестиции. 2019. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mezhunarodnaya-praktika-optimizatsii-kreditnogo-portfelya-banka-i-ee-primenenie-dlya-rossiyskogo-gunka>; Коваленко С.Б., Швейкин И.Е. Кредитный портфель банка и его роль в предотвращении кредитного риска // Промышленность: экономика, управление, технологии. 2019. №1 (75). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kreditnyy-portfel-banka-i-ego-rol-v-predotvraschenii-kreditnogo-riska>; Трифонов Д.А. Портфельное управление в коммерческом банке и его место в системе управления банковской деятельностью // Проблемы современной экономики (Новосибирск). 2010. №1-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/portfelnoe-upravlenie-v-kommercheskom-banke-i-ego-mesto-v-sisteme-upravleniya-bankovskoy-deyatelnostyu>; Бушуева М.А., Викулова Е.Н., Масюк Н.Н. Повышение качества кредитного портфеля регионального коммерческого банка как фактор совершенствования его кредитной политики // Современные научноемкие технологии. Региональное приложение. 2021. №3 (67). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/povyshenie-kachestva-kreditnogo-portfelya-regionalnogo-kommercheskogo-banka-kak-faktor-sovershenstvovaniya-ego-kreditnoy-politiki>; Гаджиева Б.А. Сущность и понятие кредитного портфеля коммерческого банка: сборник трудов конференции. / Б.А. Гаджиева, Ю.Н. Дьякова // Новое слово в науке: перспективы развития: материалы III Междунар. науч.-практ. конф. (Чебоксары, 5 марта 2015 г.) / редкол.: О.Н. Широков [и др.] – Чебоксары: Центр научного сотрудничества «Интерактив плюс», 2015. – С. 185-186. – ISBN 978-5-906626-64-6; Шапошников А.М. Межбанковская конкуренция и оценка конкурентоспособности коммерческих банков: монография/ А. М. Шапошников. – Чебоксары: ИД «Среда», 2020. – 128 с. <https://phsreda.com/e-articles/150/Action150-74727.pdf>; Ушанов А.Е. Кредитный портфель коммерческого банка и управление им // Инновации и инвестиции. 2023. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kreditnyy-portfel-kommercheskogo-banka-i-upravlenie-im>; Хашаев А.А. Понятие кредитного портфеля банка и его качества // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. 2014. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-kreditnogo-portfelya-banka-i-ego-kachestva>; Аброкова Л.С. Методические рекомендации по совершенствованию оценки качества кредитного портфеля коммерческого банка // Экономика и социум. 2016. №12-1 (31). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/metodicheskie-rekomendatsii-po-sovershenstvovaniyu-otsenki-kachestva-kreditnogo-portfelya-kommercheskogo-banka>; Зиннатуллина Р.Ш. Управление доходностью и риском кредитного портфеля коммерческого банка // Экономика и социум. 2017. №6-1 (37). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/upravlenie-dohodnostyu-i-riskom-kreditnogo-portfelya-kommercheskogo-banka>

<sup>5</sup> Жумаев Н., Тожиев Р. (2018). Теоретические аспекты управления банковской ликвидностью в современных условиях. Экономика и инновационные технологии, (2), 282–293. извлечено от [https://inlibrary.uz/index.php/economics\\_and\\_innovative/article/view/9711](https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/9711); Жумаев Н.Х., Эрназаров Н.С. Инновационная модернизация банковского сектора Республики Узбекистан в целях стимулирования привлечения частного капитала // Интернаука: электрон. научн. журн. 2021. № 3(179). URL: <https://internauka.org/journal/science/internauka/179>; Каюмов Р.И., Тоймухамедов И.Р. Повышение роли банковских кредитов в финансовом обеспечении аграрного сектора Республики Узбекистан // Экономика и бизнес: теория и практика. 2024. №1-1 (107). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/povyshenie-roli-bankovskikh-kreditov-v-finansovom-obespechenii-agrarnogo-sektora-respublikи-uzbekistan>; Азларова А.А. Основные направления повышения эффективности, конкурентоспособности и устойчивости банковской системы Республики Узбекистан. // Материалы Международной научно-практической конференции XXXIV Международные Плехановские чтения. – Ташкент, 2021. С. 124-125; Мухамеджанов К. (2010). Пути совершенствования управления кредитным портфелем и кредитными рисками коммерческого банка. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Каталог авторефератов, 1(1), 1–23. <https://inlibrary.uz/index.php/autoabstract/article/view/46783>; Кундузова К.И. Совершенствование кредитного портфеля коммерческих банков // Проблемы Науки. 2019. №10 (143). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sovershenstvovanie-kreditnogo-portfelya-kommercheskikh-bankov>; Ибодуллаев Ш.

**Tadqiqotning maqsadi** tijorat banklari kredit portfeli sifatini oshirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tijorat bankingning kredit portfeli sifatini oshirishning asosiy omillarini aniqlash; tijorat banklarida kredit portfelini diversifikatsiya qilishning iqtisodiy mohiyati va zarurligini tahlil qilish;

O‘zbekistonda tijorat bankingning kredit portfelini shakllantirishning institutsional asoslari tavsiflash;

zamonaviy rivojlanish bosqichida O‘zbekiston tijorat banklari kredit portfelining sifatini tahlil qilish;

moliyaviy barqarorlikni oshirish yo‘nalishida tijorat banklarining kredit portfelini modellashtirish;

O‘zbekiston tijorat banklari kredit portfeli sifatini oshirish istiqbollarini belgilash;

tijorat bankingning kredit portfelini boshqarishning zamonaviy usullarini joriy etish;

tijorat banklari kredit portfelining sifatini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** tijorat bankingning kredit portfeli sifatini oshirishda yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotni amalga oshirishda tizimli tahlil, sintez, tanlanma kuzatuv, tahlil va prognozlashning grafik, statistik va ekonometrik usullari, olingan tadqiqot natijalarini detallashtirish va umumlashtirish usuli, shuningdek, “Mikrokreditbank” ATB tomonidan tavsiya etilgan qarz oluvchilarining kredit portfeli sifatini oshirish yo‘nalishlarini boshqa tijorat banklariga tarqatish imkonini beruvchi induksiya usuli qo‘llanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiliqi** quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

tijorat banklari kredit portfeli sifatini oshirishni ta’minlovchi aktivlarning majburiyatlarga nisbatan o‘sishi ( $120\% \leq O'AMN \leq 140\%$ ) hamda kreditlarning depozitlarga nisbatan o‘sishi ( $250\% \leq O'KDN \leq 300\%$ )ning chegaraviy ko‘rsatkichlaridan foydalanish asoslangan;

tijorat banklari kredit portfelini turli makroiqtisodiy ssenariylar asosida stress-testdan o‘tkazish asosida yuqori to‘lovga layoqatsizlik xavfini aniqlash orqali yirik, kichik va o‘rta miqdordagi qarzlar bo‘yicha mavjud “zaif bo‘g‘inlar”ni aniqlash orqali bank foizli daromadlarini oshirish asoslangan;

---

Пути обеспечения конкурентоспособности коммерческих банков Узбекистана // Экономика и социум. №2(117) 2024. [https://www.iupr.ru/\\_files/ugd/b06fdc\\_471d847c42fc450bb30d114f8e122e12.pdf?index=true](https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_471d847c42fc450bb30d114f8e122e12.pdf?index=true); Ибодуллаев Ш., Бакоева Г. Актуальные вопросы развития банковской системы Республики Узбекистан// ОИИ. 2021. №2/S. С. 179-186. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/aktualnye-voprosy-razvitiya-bankovskoy-sistemy-respubliki-uzbekistan>; Зиядуллаев У.С. Институциональные механизмы обеспечения экономической безопасности банковской системы в Республике Узбекистан// РППЭ. 2019. №4 (102). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/institutsionalnye-mehanizmy-obespecheniya-ekonomicheskoy-bezopasnosti-bankovskoy-sistemy-v-respublike-uzbekistan>

tijorat banklari kredit portfelin diversifikatsiya qilish bo‘yicha bank tomonidan kreditni qaytarish salohiyati yuqori bo‘lgan, kafolatli daromad manbasiga ega mijozlar uchun moslashtirilgan past spredli, avtomatlashtirilgan tartibdagi iste’mol va ipoteka kreditlarini joriy etish orqali umumiy portfeldagi past riskli aktivlar ulushini oshirish hamda muammoli kreditlar xavfini pasaytirish taklifi asoslangan;

tijorat banklarining kredit portfeli sifatiga ta’sir etuvchi individual omillarni hisobga olgan holda yaratilgan ko‘p omilli ekonometrik model asosida O‘zbekiston tijorat banklari kredit resurslari hajmining 2028 yilgacha prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tijorat bankingning kredit portfelin shakllantirishning ilmiy-nazariy jihatlari yoritib berilgan;

tijorat bankingning kredit portfelin diversifikatsiya qilish va sifatini oshirish usullari aniqlangan;

tijorat banklari kredit portfeli sifatini oshirish sohasida xorijiy mamlakatlar tajribasi tizimlashtirilgan va banklar faoliyati samaradorligining miqdoriy chegara qiymatlari va sifat tavsiflarini o‘lchash bo‘yicha asosiy xorijiy metodikalar tahlil qilingan;

O‘zbekistonda tijorat banklari faoliyatini tartibga solishning institutsional muhitida amalga oshirilayotgan asosiy islohotlar o‘rganilgan va respublika bank sektorini rivojlantirishning zamonaviy shart-sharoitlari tahlil qilingan;

O‘zbekistonning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid soluvchi bank sektorining eng muhim muammolari aniqlangan, ularni bartaraf etish bo‘yicha tegishli choratadbirlar taklif etilgan va respublika tijorat banklari faoliyatini tartibga solish sohasidagi vazifalar aniqlashtirilgan;

O‘zbekiston tijorat banklari rivojlanishining hozirgi bosqichida ular faoliyatining PEST tahlili o‘tkazilgan;

ekonometrik tahlil usullari asosida tijorat banklari aktiv operatsiyalari hajmining ular rentabelligiga ta’siri baholangan va O‘zbekiston bank sektorini 2028-yilgacha rivojlantirishning prognoz ko‘rsatkichlari hisoblangan;

O‘zbekiston tijorat banklari kredit portfeli sifatini oshirish istiqbollari belgilangan;

tijorat banklari faoliyatiga innovatsion usul va vositalarni joriy etish sifat ko‘rsatkichlarini oshirish omili ekanligi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tijorat banklari faoliyati sohasidagi nazariy bilimlarni qo‘llash, ilmiy bilishning reprezentativ usullaridan foydalanish, tizimli, qiyosiy, statistik va ekonometrik tahlil tamoyillariga amal qilish, shuningdek, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy nashrlarini o‘z ichiga olgan keng doiradagi manbalardan foydalanish bilan tasdiqlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati** tijorat bankingning kredit portfeli sifatini oshirishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati** shundan iboratki, tadqiqot davomida olingan asosiy natijalar va uslubiy ishlanmalardan tijorat banklari faoliyati monitoringi samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar, ularning raqobatbardoshligini oshirish sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Taklif etilayotgan metodologiya tijorat banklari faoliyatini isloh qilishning maqsad va ustuvor yo'nalishlarini belgilash, ular faoliyati samaradorligini oshirish, shuningdek, bank faoliyati sohasida iqtisodiy rivojlanish bo'yicha davlat va mintaqaviy siyosat maqsadlariga erishish strategiyalarining to'g'ri apparatini o'z ichiga oladi. Mazkur ishda taklif etilgan tijorat banki faoliyatini isloh qilish tamoyillaridan foydalanish O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit portfelining sifatini yanada oshirishga xizmat qilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tijorat banking kredit portfeli sifatini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tijorat banklari kredit portfeli sifatini oshirishni ta'minlovchi aktivlarning majburiyatlarga nisbatan o'sishi ( $120\% \leq O'AMN \leq 140\%$ ) hamda kreditlarning depozitlarga nisbatan o'sishi ( $250\% \leq O'KDN \leq 300\%$ )ning chegaraviy ko'rsatkichlaridan foydalanish taklifi "Mikrokreditbank" ATBning kredit portfeli sifatini oshirish yo'nalishida foydalanilgan ("Mikrokreditbank" ATBning 2024 yil 17 sentabrdagi 08-04/3501-sun ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi aktivlar va majburiyatlar hamda kreditlar va depozitlar nisbatini optimallashtirish orqali kredit portfeli sifatini oshirish imkonini bergen;

tijorat banklari kredit portfelini turli makroiqtisodiy ssenariylar asosida stress-testdan o'tkazish asosida yuqori to'lovga layoqatsizlik xavfini aniqlash orqali yirik, kichik va o'rta miqdordagi qarzlar bo'yicha mavjud "zaif bo'g'inlar"ni aniqlash orqali bank foizli daromadlarini oshirish taklifi "Mikrokreditbank" ATBning kredit portfeli sifatini oshirish yo'nalishida foydalanilgan ("Mikrokreditbank" ATBning 2024 yil 17 sentabrdagi 08-04/3501-sun ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi tijorat banking kredit portfeli sifatini oshirish bo'yicha strategik reja vazifalarini ishlab chiqishga asos bo'lib xizmat qilgan, bu esa bank foizli daromadlarining 14 foizga, kapitalining 3,6 foizga o'sishiga olib kelgan;

tijorat banklari kredit portfelini diversifikatsiya qilish bo'yicha bank tomonidan kreditni qaytarish salohiyati yuqori bo'lgan, kafolatli daromad manbasiga ega mijozlar uchun moslashtirilgan past spredli, avtomatlashtirilgan tartibdagi iste'mol va ipoteka kreditlarini joriy etish orqali umumiyl portfeldagi past riskli aktivlar ulushini oshirish hamda muammoli kreditlar xavfini pasaytirish taklifi "Mikrokreditbank" ATBning kredit portfeli sifatini oshirish yo'nalishida foydalanilgan ("Mikrokreditbank" ATBning 2024 yil 17 sentabrdagi 08-04/3501-sun ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi faoliyatni optimallashtirishning resurs va jarayon parametrlarini kiritish imkonini bergen, bu esa muammoli kreditlar ulushini 2,2% ga kamaytirish, aktivlar rentabelligini 5,4% ga oshirish imkonini bergen;

tijorat banklarining kredit portfeli sifatiga ta'sir etuvchi individual omillarni hisobga olgan holda yaratilgan ko'p omilli ekonometrik model asosida O'zbekiston

tijorat banklari kredit resurslari hajmining 2028 - yilgacha ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlaridan “Mikrokreditbank” ATBning kredit portfeli sifatini oshirish yo‘nalishida foydalanilgan (“Mikrokreditbank” ATBning 2024 yil 17 sentabrdagi 08-04/3501-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi “Mikrokreditbank” ATBning kredit portfeli sifatini oshirish yo‘nalishida 2028 yilgacha bo‘lgan rentabellik prognozini amalga oshirish imkonini bergen.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami

12 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 150 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Kirish qismida mavzuning dolzarbliji va ahamiyati asoslanib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti bayon etilgan hamda respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari tahlil qilingan, olingan natjalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tijorat banki kredit portfelini shakllantirishning ilmiy-nazariy jihatlari**” nomli birinchi bobida tijorat banki kredit portfelini shakllantirishning nazariy asoslari, tijorat banki kredit portfelini diversifikatsiya qilish va sifatini oshirishning asosiy omillari asoslab berilgan, shuningdek, tijorat banki kredit portfelini shakllantirishning xorijiy tajribasi tavsifланади.

Bank faoliyati masalalari mumtoz iqtisodchi olimlar Adam Smit, David Rikardo va boshqa mutafakkirlarning asarlarida batafsил o‘rganilgan. Ularning tadqiqotlari natijasida bank tizimi faoliyatining nazariy asoslari, pulning iqtisodiyotdagи roli va kreditlash mexanizmi yaratildi. Ular pul muomalasi, emissiya jarayonlari va banklarning iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini tahlil qilib, hozirgi zamon moliya fanida dolzarb bo‘lib qolayotgan fundamental tamoyillarni shakllantirdilar.

Qarz oluvchilarni baholashni takomillashtirish

Kredit portfelini diversifikatsiya qilish

Muammoli aktivlar monitoringi va boshqaruvini takomillashtirish

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish


Foiz siyosati va kreditlash shartlarini optimallashtirish

## **1-rasm. Tijorat banki kredit portfelining sifatini oshirish va diversifikatsiyalash omillari<sup>6</sup>**

Kredit portfeli tijorat banki faoliyatining asosi bo‘lib, uning daromadliligi, barqarorligi va raqobatbardoshligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Kredit portfelining yuqori sifati risklar darajasini pasaytiradi va moliyaviy barqarorlikka hissa qo‘shadi, uning diversifikatsiyasi esa salbiy makroiqtisodiy omillar va bozor tebranishlarining ta’sirini minimallashtirish imkonini beradi.

Kredit portfelini samarali boshqarish uchun banklar qarz oluvchilarni baholash usullarini takomillashtirish, kreditlar monitoringini yaxshilash, risklarni boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini joriy etish va aktivlarni strategik taqsimlashni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni qo‘llaydi (1-rasm).

Banklarda amal qilayotgan kredit portfeli sifatini boshqarish tizimlarini tahlil qilinar ekan, bir qator kamchiliklarni qayd etish lozim (2-rasm).



## **2-rasm. Kredit portfelini boshqarish tizimidagi asosiy kamchiliklar<sup>7</sup>**

Kredit portfelini shakllantirish bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, yuqori samarali moliyaviy tizimga ega rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy sharoitlar, risklar darajasi va tartibga solish muhitiga moslashtirilgan kredit portfelini boshqarishning turli modellari va strategiyalaridan foydalaniadi.

Rivojlangan mamlakatlardan tajribasiga ko‘ra, kredit portfelini muvaffaqiyatli shakllantirish risklarni baholash, strategik diversifikatsiya va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. AQShda innovatsion vositalar va moslashuvchanlikka e’tibor qaratiladi, Germaniyada xavflarni minimallashtirish bilan konservativ yondashuv qo‘llab-quvvatlanadi, Yaponiyada esa qarz oluvchilar bilan uzoq muddatli munosabatlар va milliy iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashga e’tibor qaratiladi.


<sup>6</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>7</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

Dissertatsiyaning “O‘zbekiston tijorat banklari kredit portfelining sifati tahlili” deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekistonda tijorat banklari kredit portfeli shakllanishining institutsional asoslari tavsiflangan, rivojlanishning zamonaviy bosqichida O‘zbekiston tijorat banklari kredit portfeli sifatining tahlili amalga oshirilgan, moliyaviy barqarorlikni oshirish yo‘nalishida tijorat banklari kredit portfelinini modellashtirish amalga oshirilgan.

O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik bazasi kredit portfelinini shakllantirishning uning barqarorligi, mutanosibligi va moliyaviy barqarorlik talablariga muvofiqligini ta’minlashga qaratilgan asosiy tamoyillarini mustahkamlaydi.

O‘zbekiston bank sektori so‘nggi yillarda bir qator qiyinchiliklarga duch kelayotgan holda faol transformatsiya qilinmoqda. Moliya bozorini erkinlashtirishga qaratilgan davlat islohotlari xorijiy investorlarni jalg qiladi va xususiy sektorni rivojlantirishni rag‘batlantiradi. Biroq, bank tizimining barqarorligi va samaradorligini oshirish uchun bir qator muammolar dolzarbligicha qolmoqda va ularni tizimli hal etish talab etiladi (3-rasm).



### 3-rasm. Hozirgi bosqichda O‘zbekiston bank tizimidagi muammolar<sup>8</sup>

O‘zbekistonda so‘nggi olti yil davomida bank tizimi ko‘rsatkichlarining YAIMga nisbatining nisbiy ko‘rsatkichlari ko‘rib chiqilib, banklar aktivlari, kredit qo‘yilmalari va depozitlari nisbati barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, bank kapitalining YAIMdagi ulushi pasayib borgan, degan xulosaga kelish mumkin (1-jadval).

1-jadval

### 2020-2025-yillarda O‘zbekistonda bank tizimi ko‘rsatkichlarining YAIMga nisbati (1-yanvar holatiga), trln. so‘m<sup>9</sup>

Ko‘rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.
YAM	594,7	668	820,5	995	1 204,5	1 454,6
Bank aktivlari	272,7	366,1	444,9	556,7	652,2	769,3
Aktivlarning YAMga nisbati, %	45,9	54,8	54,2	55,9	54,1	52,9
Kredit qo‘yilmalari	211,6	277	326,4	390,4	471,4	533,1
Kredit qo‘yilmalarining YAMga nisbati, %	35,6	41,5	39,8	39,2	39,1	36,6

<sup>8</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.


<sup>9</sup> Muallif tomonidan tuzilgan. Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari <https://cbu.uz/ru/statistics/bankstats/436554/> va O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari <https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/national-accounts>

Depozitlar	91	114,7	156,2	216,7	241,7	308,7
Depozitlarning YAIMga nisbati, %	15,3	17,2	19,0	21,8	20,1	21,2
Kapital	51	58,4	70,9	79,6	97,1	114,8
Kapitalning YaIMga nisbati, %	8,6	8,7	8,6	8,0	8,1	7,9

Bu shundan dalolat beradiki, bank tizimi asosan jalg qilingan resurslar hisobiga rivojlanmoqda, xususiy kapitalning o'sishi nisbatan sekinlashmoqda, bu esa operatsiyalar hajmining oshishi sharoitida moliyaviy barqarorlik uchun ma'lum risklarni keltirib chiqarishi mumkin.

O'zbekiston tijorat banklarining jami va ustav kapitali miqdori so'nggi olti yilda 2,3 barobarga o'sib, 2025-yil boshiga kelib 114 trln. so'mdan oshgan. Ustav kapitali qariyb ikki barobarga o'sib, shu davrda 83,7 trln. so'mni tashkil etgan.

Respublika tijorat banklari ustav kapitalining jami kapitalidagi ulushi 82,2 foizdan (2020-yilda) 72,9 foizgacha (2025-yilda) kamaygan (4-rasm).



**4-rasm. 2020-2025-yillarda O'zbekiston tijorat banklarining jami va ustav kapitali miqdori, trln. so'm (1-yanvar holatiga)<sup>10</sup>**

Shunday qilib, O'zbekiston tijorat banklari kapital bazasining barqaror o'sishi kuzatilmoxda, bu esa ularning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanayotganligidan dalolat beradi. Jami kapital tarkibida ustav kapitali ulushining pasayishi banklarning ichki resurslarini diversifikatsiya qilish va kredit faoliyatini o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirish qobiliyatini kuchaytirish orqali taqsimlanmagan foyda va boshqa zaxiralardek xususiy kapitalni shakllantirish manbalari kengayib borayotganidan dalolat beradi.

O'zbekiston tijorat banklarining kredit portfeli 2025-yilda 2021-yilga nisbatan qariyb ikki barobarga oshgan bo'lib, bu kreditlash faoliyatining faollashuvi va banklar tomonidan moliyalashtirishning kengayib borayotganligidan dalolat beradi (2-jadval). Biroq muammoli kreditlar hajmining 2025-yilda 2021-yilga nisbatan qariyb

5 barobarga oshishi kredit portfeli sifatining pasayishi va kredit risklarini baholash, monitoring qilish va qarzdorlik bilan ishslash mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini

<sup>10</sup> Muallif tomonidan tuzilgan. Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari <https://cbu.uz/ru/statistics/bankstats/436554/>


ko‘rsatmoqda, shu munosabat bilan kreditlar hajmi oshishi va sifati o‘rtasidagi muvozanatni saqlash bank tizimini barqaror rivojlantirishning asosiy shartiga aylanishi kerak.

**2-jadval**

**2020-2025-yillarda O‘zbekiston tijorat banklarining kredit portfeli va muammoli kreditlari (1-yanvar holatiga), trln. so‘m<sup>11</sup>**

Ko‘rsatkichla r	2020-y.		2021-y.		2022-y.		2023-y.		2024-y.		2025-y.	
	Kredit portfeli	NPL <sup>12</sup>	Kredit portfeli	NPL	Kredit portfeli	NPL	Kredit portfeli	NPL	Kredit portfeli	NPL	Kredit portfeli	NPL
Davlat ulushiga ega banklar	m/y <sup>13</sup>	m/y	244,5	5,2	280,1	15,1	324,7	12,6	333,3	13,3	366,7	21,2
Boshqa banklar	m/y	m/y	32,5	0,6	46,3	1,9	65,4	1,3	138,1	3,4	166,4	6,8

O‘zbekiston tijorat banklarida ham davlat ulushi bo‘lgan, ham xususiy banklarda muammoli kreditlarning ulushi 2021-2025-yillar davomida deyarli ikki baravar oshdi, bu esa kredit tizimidagi xatarlarning ortib borayotganidan dalolat beradi, bu esa kreditlash tartib-qoidalarini takomillashtirish, aktivlar sifati ustidan nazoratni kuchaytirish va muammoli kreditlarni erta aniqlashning yanada samarali mexanizmlarini joriy etish zarurligini ta’kidlaydi.



**5-rasm. 2020-2025-yillarda O‘zbekiston tijorat banklarida muammoli kreditlar salmog‘i (1-yanvar holatiga), %<sup>1415</sup>**

<sup>11</sup> Muallif tomonidan tuzilgan. Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari <https://cbu.uz/ru/statistics/bankstats/436554/>

<sup>12</sup> Bu yerda va matnda ham: NPL (Non-operating loans) – muammoli kreditlar.

<sup>13</sup> Bu yerda va matnda ham: m/y – ma’lumot yo‘q.

<sup>14</sup> Muallif tomonidan tuzilgan. Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari <https://cbu.uz/ru/statistics/bankstats/436554/>

<sup>15</sup> 2020-yil uchun ma’lumotlar mavjud emas.

O‘zbekiston tijorat banklari aktivlari va majburiyatlar, kreditlari va depozitlari hajmini so‘nggi olti yil davomida tahlil qiladigan bo‘lsak, aktivlar va majburiyatlar, shuningdek, kreditlar va depozitlar nisbatining pasayish dinamikasini kuzatish mumkin (1-jadval). 3), bu esa kredit siyosatida ehtiyyotkorlikni oshirish va likvidlikni muvozanatlashtirishga intilishni ko‘rsatib, bank resurslarini boshqarishda yanada konservativ yondashuvni qo‘llash va moliyaviy ko‘rsatkichlarning barqarorligi ustidan nazoratni kuchaytirishni tavsiflaydi.

### 3-jadval

#### **2020-2025-yillarda O‘zbekiston tijorat banklari aktivlari va majburiyatlar, kreditlari va depozitlari hajmi (01.01 holatiga)<sup>16</sup>**

Ko‘rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.
Aktivlar, trln. so‘m	272,7	366,1	444,9	556,7	652,2	769,3
Majburiyatlar, trln. so‘m	221,7	307,8	374,0	477,2	555,1	654,5
<b>Aktivlarning majburiyatlarga nisbati, %</b>	<b>123</b>	<b>119</b>	<b>119</b>	<b>117</b>	<b>117</b>	<b>118</b>
Kreditlar, trln. so‘m	211,6	277,0	326,4	390,0	471,4	533,1
Depozitlar, trln. so‘m	91,0	114,7	156,2	216,7	241,7	308,7
<b>Kreditlarning depozitlarga nisbati, %</b>	<b>232</b>	<b>241</b>	<b>209</b>	<b>180</b>	<b>195</b>	<b>173</b>

O‘zbekiston bank sektori likvidliliği dinamikasi tahlili shuni ko‘rsatadi, yuqori likvidli aktivlar hajmi to‘rt barobardan ziyod o‘sgan va lahzali likvidlilik koeffitsiyenti sezilarli darajada oshgan (4-jadval). Bu banklarning qisqa muddatli majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish qobiliyatining oshishi, shuningdek, umuman moliya tizimining barqarorligi va ishonchlilagini mustahkamlashdan dalolat beradi.

### 4-jadval

#### **2020-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi bank sektorining likvidlilik dinamikasi (1-yanvar holatiga)<sup>17</sup>**

Ko‘rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.
<b>Yuqori likvidli aktivlar, trln. so‘m</b>	<b>30,9</b>	<b>50,5</b>	<b>76,0</b>	<b>104,5</b>	<b>96,9</b>	<b>133,2</b>
Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlarga nisbati, %	11,3	14,2	17,7	19,4	14,9	17,3
Likvidlilikni qoplash koeffitsiyenti, % (min. qiymat 100%)	208,5	224,5	189,6	211,6	164,8	193,8
Sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti, % (min. qiymat 100%)	112,8	109,9	115,4	115,6	111,8	115,3
Lahzalik likvidlik koeffitsiyenti, % (min. qiymat 10%)	47,8	67,4	99,3	110,1	87,4	112,3

Banklarda uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarining barqaror tarkibini saqlab qolish qobiliyatini tavsiflovchi sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti, shuningdek, banklarning qisqa muddatli majburiyatlarini yuqori likvidli aktivlar hisobidan qoplash qobiliyatini aks ettiruvchi likvidlilikni qoplash koeffitsiyenti notejis dinamikani va faqat kichik o‘sishni ko‘rsatdi (5-jadval). Bu esa resurslarni

<sup>16</sup> Muallif tomonidan tuzilgan. Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari <https://cbu.uz/ru/statistics/bankstats/436554/>

<sup>17</sup> Muallif tomonidan tuzilgan. Manba: o’sha joyda.

rejalashtirish jarayonlarining beqarorligi hamda uzoq va qisqa muddatli davrlarda likvidlikni boshqarishda risklar mavjudligidan dalolat beradi.

### 5-jadval

#### **O‘zbekiston tijorat banklarining tarmoqlar bo‘yicha kreditlari 2020-2025-yillarda (1-yanvar holatiga), %<sup>18</sup>**

Tarmoqlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.
Sanoat	35,7	36,9	36,0	32,5	30,0	29,0
Qishloq xo‘jaligi	8,1	10,1	10,7	10,8	10,1	9,2
Qurilish	2,8	2,7	2,8	2,7	3,0	2,0
Savdo va ijtimoiy xizmatlar sohasi	6,8	7,2	8,4	7,4	7,0	7,1
Transport va kommunikatsiyalar	11,1	9,6	8,8	7,6	7,1	6,0
Moddiy-texnik ta’minot va sotish	1,6	1,4	1,2	1,0	0,9	0,8
Uy-joy kommunal xizmatlari	1,2	1,4	0,7	0,5	0,5	0,4
Jismoni shaxslar	18,9	19,8	21,3	25,9	32,0	33,1
Boshqa sektorlar	13,7	10,9	10,0	11,7	11,0	12,0

Monografik tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 5-maydagi “Mikrokreditbank” aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoni asosida tashkil etilgan “Mikrokreditbank” aksiyadorlik tijorat banki tanlab olingan<sup>19</sup>.

Bankning missiyasi – kichik biznes, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholining kambag‘al qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, hunarmandchilik va kasanachilikni rivojlantirish, ayniqsa, qishloq joylarda aholiga mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratishdan iborat<sup>20</sup>.

### 6-jadval

#### **“Mikrokreditbank” aksiyadorlik tijorat banki aksiyadorlari tarkibi<sup>21</sup>**

Aksiyadorlar nomi	Qiymat
O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi	50 mln. doll. (ekvivalentda)
O‘zbekiston banklar uyushmasi	1 mlrd. so‘m
Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki	2 mlrd. so‘m
“Asaka” banki	1,5 mlrd. so‘m
Paxta banki	1 mlrd. so‘m
O‘zsanoatqurilishbank	1 mlrd. so‘m
“O‘zbekinvest” MK	1 mlrd. so‘m
“O‘zagromashservis” uyushmasi	0,5 mlrd. so‘m
“O‘zbekneftgaz” MXK	1 mlrd. so‘m
“O‘zkimyozanoat” AK	0,5 mlrd. so‘m
Savdo-sanoat palatasi	0,5 mlrd. so‘m
“O‘zbektelekom” AK	1 mlrd. so‘m
“Tadbirkor” ATBning xususiy aksiyadorlari	4 mlrd. so‘m

<sup>18</sup> Muallif tomonidan tuzilgan. Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari <https://cbu.uz/ru/statistics/bankstats/436554/>

<sup>19</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 5-maydagi PF-3750-sonli “Mikrokreditbank” aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/1004459>


<sup>20</sup> “Mikrokreditbank” ATB rasmiy sayti ma’lumotlariga asosida. <https://mkbank.uz/ru/>

<sup>21</sup> Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 5-maydagi PF-3750-sonli “Mikrokreditbank” aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/1004459>

Jami	15 mlrd. so‘m va 50 mln. dollar (ekvivalentda)
------	--

“Mikrokredit bank” aksiyadorlik tijorat banki davlat ulushi mavjud banklar tarkibiga kiradi. 2025-yil 7-mart holatiga ko‘ra, “Mikrokreditbank” aksiyadorlik kapitalidagi davlat ulushi 55,7 foizni, O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining ulushi 43,59 foizni, boshqa aksiyadorlarning ulushi 0,71 foizni tashkil etadi”<sup>22</sup>.

6-rasmda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, “Mikrokreditbank” ATB umumiyl kredit portfelining o‘sishi to‘g‘risida xulosa qilish mumkin – 2020-yildan 2025-yilgacha tijorat banklari kredit portfeli hajmi 3,1 baravarga – 5,6 trln. so‘mdan 17,4 trln. so‘mgacha oshdi, bu esa banklarning kredit faoliyati faollashgani, moliyalashtirish imkoniyatlari kengaygani va umuman bank sektorining o‘sishini ko‘rsatadi.



**6-rasm. “Mikrokreditbank”ning 2020-2025-yillardagi kredit portfeli va muammoli kreditlari hajmi (1-yanvar holatiga)<sup>23</sup>**

2021-yilda “Mikrokreditbank” ATBning muammoli kreditlari hajmi 0,9 trln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-2023-yillarda 0,6 trln. so‘mgacha pasayish kuzatilgan, bu qarzdorlik bilan muvaffaqiyatli ishslash yoki muammoli aktivlarning bir qismini restrukturizatsiya qilishdan dalolat beradi. 2024-yilda yana 0,9 trillion so‘mgacha o‘sish qayd etilgan, 2025-yilda esa bu ko‘rsatkich 0,8 trillion so‘mgacha biroz pasaygan.

2021-yilda NPL ulushi 1,0 foizni tashkil etdi – minimal ko‘rsatkich, 2022-yilda u keskin 5,9 foizgacha oshgan, bu makroiqtisodiy sharoitlarning yomonlashishi yoki xatarlarni nazorat qilishning zaiflashishi bilan bog‘liq. Keyingi yillarda ulush o‘zgarib turdi: 4,8 % (2023), 6,0 % (2024), 4,6 % (2025), bu aktivlar sifatining beqaror dinamikasini ko‘rsatadi.

“Mikrokreditbank” ATB aktivlarining gorizontal tahlili bank aktivlarining 442,1 foizga o‘siganligi to‘g‘risida xulosa chiqarish imkonini berdi, bu esa bank

<sup>22</sup> “Mikrokreditbank” ATB rasmiy sayti ma’lumotlariga asosida. <https://mkbank.uz/ru/shareholders/bank-shares/charter-capital/>

<sup>23</sup> “Mikrokreditbank” ATB ma’lumotlari asosida.<https://mkbank.uz/ru/>

faoliyatining faol kengayishi va resurs bazasining sezilarli darajada oshganligini ko'rsatadi. Mijozlarga ajratilgan kreditlar va bo'naklar 4,4 barobarga (+15,2 trln. so'm) oshib, kredit faolligi kengayganidan dalolat beradi. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar qariyb 10 baravarga (+2,2 trln. so'm) oshdi, bu ushbu davrda infratuzilma va raqamlashtirishga kiritilgan investitsiyalar bilan bog'liq.

Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari hajmi qariyb 4 barobar ko'paydi, bu esa bankning likvidligi oshganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, investitsion moliyaviy aktivlar va boshqa banklardagi mablag'lar qisqardi, bu esa mablag'larning yanada daromadli yo'nalishlar – kreditlash va boshqalar foydasiga qayta taqsimlanishini ko'rsatadi.


"Mikrokreditbank" ATB aktivlarining gorizontal tahlili ko'rsatadiki, majburiyatlar va kapital summasining o'sishi 340 foizdan oshdi, boshqa banklarning mablag'lari 30,3 foizdan ko'proqqa kamaydi, bu esa banklararo qarzlarga qaramlikning pasayishini ko'rsatadi. Bankning raqobatbardoshligini oshirish omili mijozlar mablag'larining 2,3 baravardan ko'proq o'sishi fakti hisoblanadi, chunki bu bankka bo'lган ishonchning oshishi va mijozlar bazasining o'sishini ko'rsatadi. Chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlari 16,9 mlrd. so'mga (-15,9 %) kamaydi, bunga boshqa jalg qilish manbalariga yo'naltirilganlik sabab bo'lmoqda. Moliyaviy barqarorlikni kuchaytiruvchi uzoq muddatli kapitalning yangi manbayi sifatida subordinatsiyalangan qarz yuzaga keladi.

Xususiy kapital dinamikasini ko'rib chiqishda shunga e'tibor qaratish lozimki, aksiyadorlik kapitali 2,3 barobardan ziyod o'sgan bo'lib, aksiyadorlar tomonidan kapital kiritish yoki foydani qayta investitsiyalashni aks ettirgan holda taqsimlanmagan foyda va fondlar 6,2 barobarga oshgan, bu esa daromadlilik va moliyaviy samaradorlik oshganligini tasdiqlaydi.

"Mikrokreditbank" ATB faoliyati moliyaviy natijalarining gorizontal tahlili shuni ko'rsatdiki, sof foizli daromadlar sezilarli darajada oshgan, bu kredit faoliyatining faollahuvi va daromadli aktivlar hajmi oshishini aks ettiradi. Zaxiralalar shakllantirilgandan so'ng sof foizli daromadlarning o'sishi ham o'sishni ko'rsatdi, bu bankning ehtimoliy kredit yo'qotishlariga, masalan, kredit risklarining o'sishi bilan bog'liq zaxiralarni kuchaytirganligini ko'rsatadi.

2024-yilda soliq to'lashdan oldingi foyda salbiy qiymatga ega bo'lib, bu operatsion natijaga ta'sir ko'rsatgan moliyaviy qiyinchiliklar yoki sezilarli xarajatlarni ko'rsatadi. Salbiy moliyaviy natija yuqori xarajatlar, zaxiralarning o'sishi, aktivlarning qadrsizlanishidan yo'qotishlar yoki boshqa rejadan tashqari xarajatlar natijasida yuzaga keladigan foizli daromadlarning o'sishiga qaramay, yil yakunlari bo'yicha yo'qotishlardan dalolat beradi. Zararlarga qaramay, yakuniy umumiyl daromad +101,8 mlrd so'mni tashkil etdi, ya'ni ijobjiy qayta baholashlar yoki boshqa daromadlar zararlarning bir qismini qopladi.

"Mikrokreditbank" ATBning moliyaviy natija ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarni chuqurroq tushunish uchun 7-rasmida keltirilgan 2019-2024-yillar davridagi jami daromad (19arar) dinamikasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.



**7-rasm. “Mikrokreditbank” ATBning 2019-2024-yillardagi jami daromadi (zarari) dinamikasi<sup>24</sup>**

Grafik so‘f foydaning zararga aylanishini, shuningdek, 2024-yilda salbiy yakuniy natijani yumshatishda muhim rol o‘ynagan boshqa jami daromadlarning ta’sirini yaqqol ko‘rsatadi. Sof foizli daromadlarning ijobiy dinamikasiga qaramay, yalpi daromad zaxiralarning kuchayishi, xarajatlarning o‘sishi yoki aktivlar tarkibidagi o‘zgarishlar tufayli o‘zgaruvchanlikni ko‘rsatdi.

“Mikrokreditbank” ATBning so‘nggi olti yillik faoliyatidagi pul mablag‘lari harakatining gorizontal tahlili shuni ko‘rsatdiki, bankning operatsion faoliyati tashqi omillar va aktivlar tarkibiga sezilarli darajada bog‘liq bo‘lib, o‘zgaruvchan va beqaror bo‘lib qolmoqda. 2024-yilda investitsiya xarajatlarining -82 mlrd. so‘mgacha qisqarishi kuzatilmoxda, bu esa investitsiya faolligining pasayishi yoki yirik loyihalarning yakunlanishini ko‘rsatadi, ya’ni o‘rganilayotgan davr davomida bank, ayniqsa, davr boshida faol investitsiya kiritgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib investitsiyalar hajmi sezilarli darajada kamaygan.

Yakuniy likvidlikka kelsak, bu yerda umumiy ijobiy tendensiyani kuzatish mumkin. Shunday qilib, operatsion oqimlarning o‘zgarishiga qaramay, bank likvidlikning ijobiy dinamikasini saqlab qolmoqda, bu esa pul mablag‘larini samarali boshqarishdan dalolat beradi. Investitsion faollik so‘nggi yillarda pasayib borgan, bu investitsion fazaning tugashidan darak beradi va foydaning yomonlashuviga javob bo‘ladi.

